

BO'LAJAK INGLIZ TILI O'QITUVCHILARINING RAVON NUTQ KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA AUTENTIK KOMMUNIKATIV VAZIYATLARDAN FOYDALANISH

Abdullayeva Charos Farxodovna

Guliston davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

abdullayevacharos710@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22841511>

Annotatsiya: Mazkur tezisda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirishda autentik kommunikativ vaziyatlardan foydalanishning metodik imkoniyatlari yoritilgan. Zamonaviy xorijiy til ta'limida bo'lajak o'qituvchining faqat grammatik va leksik bilimlarga ega bo'lishi yetarli emas. U real pedagogik vaziyatlarda fikrini tez, izchil, aniq va maqsadga muvofiq ifodalay olishi, suhbatdoshning fikrini tushunishi, muloqotni davom ettirishi va zarur holatlarda nutq strategiyalaridan foydalana olishi lozim. Shu nuqtai nazardan, autentik kommunikativ vaziyatlar, rolli o'yinlar, muammoli topshiriqlar, keyslar, axborot almashinuvi va pedagogik simulyatsiyalardan foydalanish samarali metodik vosita sifatida qaraladi.

Kalit so'zlar: ravon nutq, nutq kompetensiyasi, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi, autentik kommunikativ vaziyat, pedagogik muloqot, rolli o'yin, muammoli topshiriq, kommunikativ kompetensiya, spontan nutq.

Аннотация: В тезисе рассматриваются методические возможности использования аутентичных коммуникативных ситуаций для развития будущей речи будущих учителей английского языка. Современная подготовка будущего учителя иностранного языка предполагает не только формирование грамматических и лексических знаний, но и развитие способности свободно, последовательно и целенаправленно выражать свои мысли в реальных педагогических ситуациях. Особое внимание уделяется ролевым играм,

проблемным заданиям, кейсам, информационным обменам и педагогическим симуляциям.

Ключевые слова: беглая речь, речевая компетенция, будущий учитель английского языка, аутентичная коммуникативная ситуация, педагогическое общение, ролевая игра, проблемное задание, коммуникативная компетенция, спонтанная речь.

Annotation: This thesis explores the methodological potential of using authentic communicative situations to develop the fluency competence of future English teachers. Effective teacher preparation requires more than grammatical and lexical knowledge; future teachers need to express ideas fluently, coherently and appropriately in real pedagogical interactions. The study focuses on role-plays, problem-solving activities, case-based tasks, information-gap activities and pedagogical simulations as effective tools for developing spontaneous speech, interactional competence and communicative flexibility.

Keywords: speech fluency, speech competence, future English teachers, authentic communicative situations, pedagogical communication, role-play, problem-solving tasks, communicative competence, spontaneous speech.

Bugungi kunda xorijiy til o'qituvchisini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida uning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bo'lajak ingliz tili o'qituvchisining ravon nutq kompetensiyasi uning kelgusidagi pedagogik faoliyati bilan bevosita bog'liq. Chunki o'qituvchi dars jarayonida mavzuni tushuntirish, ko'rsatma berish, savollarga javob qaytarish, talabalar bilan munozara olib borish, kutilmagan vaziyatlarga munosabat bildirish va turli pedagogik muammolarni muloqot orqali hal etishi kerak.

An'anaviy til mashg'ulotlarida talabalar ko'pincha oldindan tayyorlangan dialog va monologlarni bajaradilar. Bunday mashqlar til birliklarini o'zlashtirishga yordam bersa-da, har doim ham real muloqotda zarur bo'ladigan spontan nutqni shakllantirishga yetarli imkoniyat yaratmaydi. Real kommunikativ vaziyatda esa

suhbatdoshning savoli oldindan ma'lum bo'lmaydi, javobni rejalashtirish uchun vaqt cheklangan bo'ladi va fikrni davom ettirish jarayonida turli nutq strategiyalaridan foydalanishga to'g'ri keladi. Shu sababli bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining ravon nutqini rivojlantirishda autentik kommunikativ vaziyatlardan foydalanish alohida metodik ahamiyat kasb etadi.

Autentik kommunikativ vaziyat deganda til o'rganuvchini real hayot yoki kasbiy faoliyatga yaqin bo'lgan, muayyan kommunikativ maqsadga ega muloqotga jalb etuvchi vaziyat tushuniladi. Bunday vaziyatlarda talaba faqat grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzishga emas, balki ma'lum bir vazifani muloqot orqali bajarishga intiladi.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun bunday vaziyatlarni kelajakdagi kasbiy faoliyat bilan bog'lash maqsadga muvofiq: o'quvchiga mavzuni tushuntirish, dars jarayonida ko'rsatma berish, o'quvchining savoliga spontan javob berish, o'ta-bona bilan suhbat olib borish, intizom muammosini hal qilish, hamkasb bilan metodik masalani muhokama qilish, o'quvchiga maslahat berish va pedagogik yig'ilishda o'z nuqtayi nazarini asoslash.

Ravon nutqni faqat tez gapirish qobiliyati sifatida tushunish to'g'ri emas. U nutqning uzluksizligi va tabiiyligi, fikrlarning mantiqiy bog'lanishi, leksik moslashuvchanlik, interaktivlik hamda kommunikativ strategiyalardan foydalanishni qamrab oladi. Talaba kerakli so'zni darhol eslay olmasa, boshqa ifoda vositasidan foydalanib muloqotni davom ettira olishi lozim. Shuningdek, u suhbatdoshning fikrini tinglashi, savol berishi, aniqlashtirishi va munosabat bildirishi kerak.

Ravon nutqni rivojlantirish uchun kommunikativ topshiriqlar bosqichma-bosqich murakkablashtirilishi maqsadga muvofiq. **Birinchi bosqichda** talabalar qisqa va tanish vaziyatlarda fikr bildirishga o'rgatiladi. Masalan: "You are an English teacher. A student does not understand the homework. Explain it in a simple way."

Ikkinchi bosqichda muammoli vaziyatlardan foydalaniladi. Masalan: “One of your students regularly comes late to your English lessons. The student gives different excuses each time. Talk to the student and try to solve the problem.” Mazkur topshiriq muloyim murojaat qilish, savol berish, sababni aniqlash va yechim taklif qilishni talab qiladi.

Uchinchi bosqichda pedagogik simulyatsiyalar tashkil etiladi. Talabalar o‘qituvchi, o‘quvchi, ota-ona yoki hamkasb rollarini bajaradilar. Masalan, “Parent–Teacher Meeting” faoliyatida bir talaba o‘qituvchi, ikkinchisi esa ota-ona roliga ishtirok etadi.

Samarali kommunikativ topshiriqlarning modeli

1. Vaziyatni taqdim etish → 2. Kommunikativ maqsadni aniqlash → 3. Individual tayyorgarlik → 4. Juftlik yoki guruhdagi muloqot → 5. Kutilmagan savol yoki muammo → 6. Spontan javob → 7. Refleksiya va tahlil.

Refleksiya bosqichida “*What was difficult?*”, “*What helped you continue speaking?*”, “*Which expressions did you use to clarify your idea?*” kabi savollar orqali talaba o‘z nutqiy faoliyatini baholashi mumkin. Baholashda faqat grammatik xatolar emas, balki ravonlik, mantiqiy izchillik, interaktivlik, leksik moslashuvchanlik, talaffuzning tushunarlilik va kommunikativ strategiyalardan foydalanish ham hisobga olinishi lozim.

Autentik kommunikativ vaziyatlardan muntazam foydalanish bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini real kasbiy muloqotga yaqinlashtiradi. Bunday mashg‘ulotlarda talabalar tilni o‘rganiladigan obyekt sifatida emas, balki muayyan kommunikativ vazifani bajarish vositasi sifatida qo‘llaydilar. Autentik vaziyatlar talabalarda mustaqil qaror qabul qilish, suhbatni davom ettirish, kutilmagan savollarga javob berish va turli nuqtayi nazarlarni hisobga olish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining ravon nutq kompetensiyasini rivojlantirishda autentik kommunikativ vaziyatlardan foydalanish samarali metodik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunday yondashuv talabalarning

grammatik va leksik bilimlarini amaliy muloqot bilan bog'lash, spontan nutqni shakllantirish, fikrni izchil ifodalash va kommunikativ strategiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Autentik kommunikativ vaziyatlar bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga moslashtirilganda yuqori metodik qiymatga ega bo'ladi. O'qituvchi—o'quvchi, o'qituvchi—ota-ona, o'qituvchi—hamkasb kabi muloqot modellaridan foydalanish talabalarni real pedagogik faoliyatga tayyorlash imkonini beradi. Shu bois rolli o'yinlar, pedagogik simulyatsiyalar, keyslar, muammoli vaziyatlar, axborot almashinuvi va spontan nutq topshiriqlarini tizimli qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bygate, M. (2015). Sources, Developments and Directions of Research into Teaching Spoken Language. Language Teaching.
2. Brown, H. D., & Lee, H. (2015). Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy. Pearson.
3. Celce-Murcia, M., Brinton, D. M., & Snow, M. A. (Eds.). (2014). Teaching English as a Second or Foreign Language. National Geographic Learning.
4. Ellis, R. (2003). Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford University Press.
5. Goh, C. C. M., & Burns, A. (2012). Teaching Speaking: A Holistic Approach. Cambridge University Press.
6. Littlewood, W. (2004). The Task-Based Approach: Some Questions and Suggestions. ELT Journal.
7. Nunan, D. (2004). Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press.
8. Thornbury, S. (2005). How to Teach Speaking. Pearson Education.
9. Ur, P. (2012). A Course in Language Teaching. Cambridge University Press.
10. Willis, J. (1996). A Framework for Task-Based Learning. Longman.